



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi*

_____ning
*20__-20__-o'quv yilida
9-sinflar uchun jahon tarixi fanidan
I yarim yillik*

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 9-sinf jahon tarixi fanidan I yarim yillik
uchun taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazil-gan sana
1.	Kirish. Buyuk geografik kashfiyotlar. Mustamlaka tizimining shakllanishi	1		
2.	G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida industrial jamiyat asoslarining yaratilishi	1		
3.	Gumanizm: G‘arbiy Yevropada yangi davr madaniyati va fanini	1		
4.	Yevropada Reformatsiya: Yangi davr qadriyatlarining shakllanishi	1		
5.	Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi. Absolyutizm	1		
6.	Buyuk Britaniya: imperiya quyoshining porlashi	1		
7.	1-Nazorat ishi	1		
8.	“Davlat – bu men!”: Fransiya mutlaq	1		
9.	Fransiya burjua inqilobi	1		
10.	Germaniya imperiyasidagi siyosiy-iqtisodiy jarayonlar	1		
11.	Rossiya – Buyuk knyazlikdan imperiya sari	1		
12.	Shimoliy Amerikada yangi davlatning vujudga kelishi	1		
13.	Lotin Amerikasi mustamlakachilik zulmi ostida	1		
14.	Ma’rifat asri: ilm-fan va madaniyat rivoji	1		
15.	2-Nazorat ishi	1		
16.	Osiyo va Afrika: an’anaviy jamiyatlarda taraqqiyot muammolari	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Kirish. Buyuk geografik kashfiyotlar. mustamlaka tizimining shakllanishi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: darsda yangi tarix voqealari bilan tanishtirish, yangi tarix kishilarning tabiiy tengligi, shaxsning erkinligi va sha’ni kabi demokratik tushunchalarga asoslangan yangicha dunyoqarashlari haqida tushuncha berish mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, qiziqishini ortirish, jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribalaridan bugungi kunda foydalanib, yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik mamlakatimizda buyuk jamiyat qurishni va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashimiz, rivojlangan mamlakatlar tarixini chuqur o‘rganib, uning ijobiy tomonlaridan respublikamiz ravnaqi uchun hissa qo‘shish kerakligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish, bilimlarini boyitish va yangi bilim berish, sivilizatsiya insoniyat tarixida neolit davridan boshlanib, XVIII asrning 60-yillaridagi sanoat inqilobi va uning asosida yangi jamiyat shakllanguncha davom etdi.demokratik tushunchalar berish.

Rivojlantiruvchi: Jahon tarixining eng qiziqarli, shu bilan birga, murakkab davrini o‘rgatish, bu davrda dunyoda katta o‘zgarishlar yuz bergani, ishlab chiqarishda monopolistik kapitalizm qaror topgani, turli xil sindikatlar, kartellar, konsemlar yuzaga kelgani haqida tushuncha berish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish; turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o‘z xatti-harakatini adekvat baholash, o‘zini nazorat qila bilish,halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib,hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

Siz 9-sinfda insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichi — Yangi tarix voqealari bilan tanishishni boshlaysiz. Yangi tarix kishilarning tabiiy tengligi, shaxsning erkinligi va sha'ni kabi demokratik tushunchalarga asoslangan yangicha dunyoqarashning shakllanishi bilan O'rta asrlardan farq qiladi. Yangi davrning eng xarakterli tomonlaridan biri, dunyoni yangicha tushunish asosida insonning tashabbuskorligi, tadbirkorligi uchun keng imkoniyatlar ochishda namoyon bo'ldi.

XVI asrdan boshlangan bu o'zgarishlar natijasida dastlab G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada shakllangan yangi jamiyatni "kapitalistik jamiyat" deb atay boshladilar. Bu jamiyatning nomi "**kapital**" so'zidan olingan. Kapital — o'z egasiga daromad keltiruvchi xususiy mulk (fabrika, zavod, kon, bank va boshqalar) va mablag', o'zini o'zi ko'paytiruvchi sarmoya. Bu sarmoyaning asosida erkin tadbirkorlik faoliyati yotadi. Shu sababli kapitalistik jamiyatda xususiy mulk va yollanma mehnatdan foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada iqtisodiy hayot gurrakib o'sdi, sanoat ishlab chiqarishi va savdo rivojlandi, kapitalistik munosabatlar vujudga keldi. Ishlab chiqarishning yangi shakllari paydo bo'ldi, mehnat qurollari takomillashdi, sexlar o'rnini manufakturalar egallay boshladi.

Yevropaliklarning hayotida ko'plab yangiliklar, ishchanlik, intiluvchanlik kabi yangi belgilar paydo bo'ldi, ularning bir qismi Sharqdan kirib keldi. Bundan tashqari, Yangi davr rivojlangan shahar madaniyati, antik davr tarixiga bo'lgan katta qiziqish, uni ideallashtirish, badiiy san'atining tez hayotlashuvi kabilar bilan ham xarakterlanadi. Aslida, ko'pchilik hollarda fojiali oqibatlariga olib kelgan urushlar, qo'zg'olonlar va inqiloblar emas, kishilarning yaratuvchanlik faoliyati, doimiy izlanish va intilish ma'naviyat va madaniyatda, ijtimoiy hayotda va iqtisodiy o'sishda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Shu o'zgarishlar natijasida G'arbiy Yevropaning ilg'or mamlakatlarida kapitalistik jamiyat zamirida sanoatga asoslangan yangi sivilizatsiya shakllandi va u "industrial sivilizatsiya" deb ataldi.

Yevropada industrial sivilizatsiyaning jadal rivojlanishi Yangi tarixning asosiy mazmunini tashkil etadi. Aynan shu jadal rivojlanish tufayli Yevropa dunyoda yetakchi o'rinni egalladi, keyin esa Yer yuzining katta qismini o'ziga bo'ysundirdi. Yangi tarix XV asr oxiri — XVI asr boshlaridagi Buyuk geografik kashfiyotlardan boshlanadi hamda Birinchi jahon urushining yakuni — 1918-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Yangi tarix, odatda, ikki bosqichga bo'linadi. Uning birinchi bosqichi – Buyuk geografik kashfiyotlardan XVIII asrning oxiridagi Buyuk fransuz burjua inqilobigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Yangi tarixning ikkinchi bosqichi XIX asrning boshidan Birinchi jahon urushining yakuni — 1918-yilgacha davom etadi. Yangi davrda yuz bergan burjua inqiloblari feodal tartiblarni buzib tashladi va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi uchun keng yo'l ochdi. Iqtisodning jadal rivojlanishi shu davrda amalga oshirilgan fan va texnika yutuqlariga asoslandi. Fan va texnika o'rtasida uzviy aloqa shakllanib, bu aloqa natijasida XVIII asr oxiridan boshlab buyuk texnik ixtirolar amalga oshirildi. Bu ixtirolar ishlab chiqarishni rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Yangi davrda o'zgarishlar sur'ati rivojlanishning o'tgan bosqichlariga nisbatan juda shiddatli kechib, fan va texnika sohasidagi kashfiyotlar ishlab chiqarishga jadallik bilan joriy qilinib bordi. Shu tariqa, XVIII asr oxiri va XIX asrda fan va texnika sohalarida erishilgan juda ulkan yutuqlar sanoat inqilobiga olib keldi. O'z navbatida, sanoat inqilobi agrar sivilizatsiyadan sanoat ishlab chiqarishi va industrial sivilizatsiyaga o'tish uchun asos yaratdi.

XV asrga kelib, dunyo sezilarli darajada o'zgardi. Tadqiqotchilar e'tibori, an'anaviy ravishda, taraqqiyotda oldinga chiqib olgan G'arb mamlakatlariga qaratildi, ammo, qayd etish lozimki, Yer yuzining hamma joyida — quruqlik va dengizda mislsiz o'zgarishlar yuz berdi.

Eski dunyoning alohida chekka qismlari Hind okeani bilan bog'langan edi. Yamanning bir necha asrdan beri ziravorlar savdosini nazorat qilib kelgan Adan shahri savdogarlarining **karimiylar** uyushmasi XV asrda inqirozga yuz tutdi. Mo'g'ullar imperiyasi tarqalib ketgandan so'ng – quruqlik orqali savdo qiyinlashib qolgan davrda – dengiz savdosi juda katta foyda keltirar edi. Shu sababli karimiylar o'rnini Hindistonning Gujorat shahridan bo'lgan savdogarlar juda tezlik bilan egalladi. Ular Adan va Malakka orollari o'rtasidagi hududda keng ko'lamli savdo tarmog'ini vujudga keltirdi. Adanda hind kemalariga fil suyagi, oltin va Afrikadagi Zanzibar hududi orqali keltirilgan afrikalik qullar, giyohvandlik moddalari, Levantning pushti rang suvi (mushkambar) va venetsiyaliklar olib kelgan mato yuklanardi.

Keyin kemalar Hindistonning g'arbidagi Kambey yoki Surat shaharlariga kelar, bu yerda yuklarning

katta qismini qoldirib, Gujorat to'quvchilari tomonidan tayyorlangan paxta matolarini yuklardi va Kalkutta yoki Seylon orqali Malakka orollariga suzib ketardi. U yerda tovarlarini malay yoki xitoy savdogarlariga o'tkazib, ziravor hamda xitoy tovarlari — ipak mato va chinni yuklab ortga qaytardi.

XV asr o'rtalarida Yaponiyaning Okinava oroliga joylashib olgan xitoy savdogarlari o'ziga xos tizim: Janub (Annam, Siam, Yava, Sumatra, Birma), Xitoy va Shimol (Yaponiya va Koreya)dan iborat "savdo uchburchagi"ni shakllantirdi. Savdo operatsiyalaridan keladigan foyda 1000 foizgacha yetardi. Bu Okinava uchun "oltin davr" bo'ldi, bu yerda nafaqat qirg'oq bo'ylab suzadigan mahalliy kemalarni, balki xalqaro ekipajdan iborat xitoy, yapon va malaylarning "Jonka" kemalarini ham uchratish mumkin edi. Portugaliyaliklar tomonidan 1419-yili Atlantika okeanidagi Madeyra orollari kashf etildi.

1453-yilda Usmoniylar imperiyasi ziravorlar savdosining asosiy yo'lini to'sib qo'ydi. Bu yevropaliklarni Hindistonga yangi dengiz yo'llarini izlashga majbur qildi.



Buyuk geografik kashfiyotlar nomini oldi. Zotan, aynan yevropaliklar tomonidan yangi savdo yo'llarining ochilishi, kashf etilgan yerlarning o'zlashtirilishi va u yerlardagi boyliklarning talanishi kapitalning dastlabki jamg'arilishi jarayonini tezlashtirdi, mustamlaka tizimining shakllanishini boshlab berdi, jahon bozorining tarkib topishiga, Yevropada savdo kapitalining, bank ishi va kreditning rivojlanishiga olib keldi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Yozuvsiz xarita, matn va internetdan foydalanib osiyolik savdogarlarning dengizdagi yo'nalishlari va savdo shaharlarini belgilang.
2. Mustamlaka boyliklarining talanishi — kapitalning dastlabki jamg'arilishi — mustamlaka tizimining shakllanishi — jahon bozorining tarkib topishi — Yevropada savdo kapitalining, bank ishi va kreditning rivojlanishi "zanjiri" asosida nutq tayyorlang va misollar orqali tushuncha bering.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyg'a vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: G‘arbiy yevropa mamlakatlarida industrial jamiyat asoslarining yaratilishi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: darsda yangi tarix voqealari bilan tanishtirish, yangi tarix kishilarning tabiiy tengligi, shaxsning erkinligi va sha’ni kabi demokratik tushunchalarga asoslangan yangicha dunyoqarashlari haqida tushuncha berish mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, qiziqishini ortirish, jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribalaridan bugungi kunda foydalanib, yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik mamlakatimizda buyuk jamiyat qurishni va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashimiz, rivojlangan mamlakatlar tarixini chuqur o‘rganib, uning ijobiy tomonlaridan respublikamiz ravnaqi uchun hissa qo‘shish kerakligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish, bilimlarini boyitish va yangi bilim berish, sivilizatsiya insoniyat tarixida neolit davridan boshlanib, XVIII asrning 60-yillaridagi sanoat inqilobi va uning asosida yangi jamiyat shakllanguncha davom etdi.demokratik tushunchalar berish.

Rivojlantiruvchi: Jahon tarixining eng qiziqarli, shu bilan birga, murakkab davrini o‘rgatish, bu davrda dunyoda katta o‘zgarishlar yuz bergani, ishlab chiqarishda monopolistik kapitalizm qaror topgani, turli xil sindikatlar, kartellar, konsemlar yuzaga kelgani haqida tushuncha berish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;
media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda mediamadaniyatga rioya qilish;
ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;
o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: kompetensiya

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;
badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib,hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.


Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

Yangicha iqtisodning shakllanishi. Buyuk geografik kashfiyotlardan so‘ng Amerikadan ko‘plab oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar Yevropa bozorlariga keltirildi. Qirollar mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ancha ko‘p oltin va kumush tangalar zarb qildi. Pul ko‘paygan sharoitda hunarmandlar va savdogarlar kasodga uchramaslik uchun o‘z tovarlarining narxini oshirishga majbur bo‘ldi. Shu tariqa yuz yillar davomida o‘zgarmasdan kelgan narx-navo shiddat bilan o‘sa boshladi. Bu jarayon “narx-navo inqilobi” deb ataldi.

Yevropa mamlakatlarida odamlar yashash uchun pul topishning yangi yo‘llarini izlashga tushdi. Ko‘plab oilalar endi ilgorigidek natural xo‘jalik yurita olmasdan, mahsulotning bir qismini bozorda sotishga majbur bo‘ldi. Natijada Yevropada tovar ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar, ya‘ni bozorda sotishga mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar soni ko‘payib bordi. Kapitalistik munosabatlarning paydo bo‘lishi. Bozor munosabatlari jadal rivojlanayotgan Angliya, Gollandiya va Fransiya kabi mamlakatlarda savdogarlar ulgurji savdoga katta ehtiyoj seza boshladi. Ular endi vaqti-vaqti bilan o‘tkaziladigan yarmarkalarga mahsulot olib borish o‘rniga, yirik shaharlarda tashkil qilingan va “birja” deb atalgan maxsus joylarda o‘z mahsulotlarini e‘lon qila boshladi. Shu yerda xaridorlar bilan oldi-sotdi shartnomasi tuzilib, mahsulot kelishilgan joyga jo‘natilar edi.

Birjalar bilan bir qatorda, zamonaviy banklarning paydo bo‘lishi ham Yangi davr sivilizatsiyasining buyuk yutug‘i bo‘ldi. O‘rta asrlarda banklar rolini pul maydalaydigan sarroflik do‘konlari bajarar edi. XV asrda zamonaviy ko‘rinishdagi ilk bank — Genuyadagi Avliyo Georgiy banki paydo bo‘ldi. Keyin G‘arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham savdogarlarga xizmat ko‘rsatuvchi shunday banklar vujudga keldi. Birja va banklar Yevropada savdo va sanoatning rivojlanishida juda katta rol o‘ynadi.



Industrial jamiyat yaratilishi

Bozorlarda mahsulotning ko‘payishi natijasida uni ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar o‘rtasida raqobat paydo bo‘ldi. Raqobatda mag‘lub bo‘lib, kasodga uchramaslik uchun mahsulotni tez, sifatli va arzon ishlab chiqarish talab qilinardi. Shu sababli Yevropada mahsulot ishlab chiqarish texnika va texnologiyasi jadal rivojlandi, yangi ixtirolar ko‘paydi, mahsulot narxi arzonlashib, odamlarning yashash darajasi yaxshilanib bordi. Dehqonlar O‘rta asrlardagi uch dalali ekishdan ko‘p dalali ekishga o‘tdi. Natijada qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hosildorligi oshib, sotish uchun mahsulot ko‘paydi. Bug‘doyni yanchish, shaxtadan suv chiqarish uchun suv charxpalagi va shamol tegirmonidan keng foydalanish boshlandi. Tokarlik, to‘quvchilik uskunalari va boshqa eng oddiy dastgohlar yaratildi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Daftaringizda “XVI–XVII asrlarda savdoning rivojlanishi” mavzusida reja tuzing (bu davrni oldingi davrdan farqlaydigan yangiliklarni yozishni unutmang).
2. Yirik savdo kompaniyalari, banklar va birjalarning paydo bo‘lishi savdoning rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyg‘a vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

35 listdan iborat jahon tarixi fanidan 9-sinf I yarim yillik konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**